

**MAKTAB O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH
MASALALARI**

Shaismatova Nadira Abduvajitovna

Toshkent viloyati Angren shahar 29- maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzuda maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishning dolzarb masalalari, uning psixologik asoslari va samarali tashkil etish yo‘llari yoritiladi. Kasbga yo‘naltirish jarayoni o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat bozori talablari asosida amalga oshirilishi zarurligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, o‘quvchi, qiziqish, qobiliyat, motivatsiya, psixologik test, mehnat bozori

KIRISH

Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bugungi kunda ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlashi ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbga yo‘naltirish jarayoni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Har bir o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari turlicha bo‘lganligi sababli, ularga individual yondashuv zarur. Shu maqsadda psixologik testlar, suhbatlar va kuzatish usullaridan foydalaniladi.

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli ravishda olib borilishi kerak. Bu jarayonda o‘quvchilarga turli kasblar haqida ma’lumot berish, mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ekskursiyalar uyushtirish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali o‘quvchilar real hayotdagi kasblar bilan yaqindan tanishadi.

Shuningdek, o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Ular o'z qiziqish va imkoniyatlarini to'g'ri baholashni o'rganishi kerak. Bu esa ongli va to'g'ri kasb tanlashga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirishda ota-onalarning roli ham katta. Ba'zan ota-onalar farzandlariga o'z xohishlarini majburlab qabul qildiradi, bu esa noto'g'ri tanlovga olib kelishi mumkin. Shu sababli ota-onalar bolani tushunishi va uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi zarur.

Zamonaviy sharoitda mehnat bozori talablarini ham hisobga olish muhimdir. Yangi kasblar paydo bo'layotgani va ayrim kasblar eskirib borayotganini inobatga olib, o'quvchilarni zamon talablariga mos kasblarga yo'naltirish zarur.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, bugungi va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-hunarni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi, ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biron-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu

sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida etuk va malakali mutaxassis bo‘lib etishishi tushiniladi.

Haqiqatdan ham bu cheksiz murakkab, orqaga qaytarilmaydigan, muhim jarayon bo‘lib, undan inson manfaatlari yo‘lida unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Kasbga yo‘naltirish ishlari an’anaviy ravishda o‘quvchilarni kasblar ro‘yxati bilan tanishtirish doirasidan ancha chiqib ketgan. Bugungi kunda kasbga yo‘naltirishga yondashuv -bu boshlang‘ich sinflardan boshlanib, bitiruvga qadar davom etadigan, kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashni uzluksiz qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks tizimdir.

Zamonaviy kasbga yo‘naltirish ishlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Tizimlilik va bosqichma-bosqichlik** -ish o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi va kasblar olami haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishdan tortib, kasbiy sohalarga amaliy sho‘ng‘ishgacha bo‘lgan ketma-ket bosqichlarni qamrab oladi.

2. **Amaliy yo‘naltirilganlik** -kasbiy sinovlar, ustozlik (nastavnichestvo), stajirovkalar orqali haqiqiy tajriba orttirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

3. **Individuallashtirish** -har bir o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiy ta‘lim trayektoriyalarini shakllantirish.

4. **Texnologiklik** -kasbiy yo‘lni diagnostika qilish, axborot bilan ta‘minlash va modellashtirish uchun raqamli vositalardan foydalanish.

5. **Hamkorlikka asoslangan yondashuv** -kasbga yo‘naltirish ishlariga ota-onalarni, biznes vakillarini, kasbiy ta‘lim muassasalarini jalb etish

Umumta‘lim maktablarida mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, avvalo, kasbning ahamiyati, maqsad vazifalarini aniq bilgan holda darslarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

ilmiy –amaliy anjuman

Masalan, amaliy san'at turlari bo'yicha o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni, go'zallikni seza bilishga, ulardan bahra olishga va ularga to'g'ri baho berishga o'rgatish;
- madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, boy milliy merosimizni qadrlash, asrabavaylash va ular bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish;
- mashhur usta-hunarmandlarning ijodiy uslublarini har jihatdan mukammal o'rgatish;
- kasb-hunarga bo'lgan qiziquvchanlik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda, ayniqsa, noan'anaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi. Chunki yuqori darajadagi kasbiy madaniyat, mustaqil fikrlay oladigan, turli echimlarni mustaqil hal qiladigan, jahon standartlariga mos keladigan barkamol avlodni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullari katta ahamiyatga ega.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va yerkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi va reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga yega bo'ladi. "Tarozi" texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizasiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bulib o'quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini

ilmiy –amaliy anjuman

himoya qilish, muxoliflarni ishontirish va munozara madaniyatiga o'rgatadi. "Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama yetiladi. Bu interaktiv texnoloiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklini ixcham bayon yetish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, kasbga mehr-muhabbat uyg'otishda qo'llaniladigan interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llashning tub maqsadi dars qaysi shaklda bo'lmasin, qaerda o'tkazilmasin o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdan iborat. Umumta'lim tizimida interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchilar uchun quyidagi talablarni tavsiya qilamiz:

- ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning maqsadi, mohiyatini, taraqqiyot bosqichlarini bilish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv fani maqsadiga muvofiq tanlay olish va amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogik tamoyillarga to'laqonli amal qilish barobarida o'z ustida tinmay izlanishlar olib borish;
- interfaol dars shakllarining an'anaviy darsdan ustunligini anglash va har ikkala dars shakllaridan o'rinli foydalanish malakasiga ega bo'lish;
- o'quvchi shaxsiy sifatlaridagi o'ziga xoslik munosabatlarini yakdil anglay olish va induvidial mahorat orqali yondashish malakasiga ega bo'lish;
- darsda o'quvchilarning ijodkorligi, dunyoqarashi, jamiyatda o'z o'rmini topa olishi uchun shart-sharoit yaratish, fan va madaniyatning eng

so‘nggi yutuqlari asosida ularni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini amalda qo‘llash.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tish jarayonida talabalarda o‘zlashtirish yuqori bo‘lish bilan birga, yo‘naltirilgan kasblariga mehr-muhabbat paydo bo‘lishi, mustahkam kasbiy mahoratga ega bo‘lishlari va buning hayotdagi muhim ahamiyati haqida ham ongli tushunchani hosil qilishlari, tanlagan sohasiga qiziqishlari yanada oshishi tabiiydir.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari ta’lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o‘rib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o‘z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkonini yaratadi.

Kasb tanlashga doir trening mashg‘ulotlari:

Taklif etilayotgan o‘yinlar quyidagi sxemada tavsiflanadi:

1.O‘yindan ko‘zlangan maqsad, o‘yinlar tashkil etilishi umumiy sxemasi bilan bog‘lanishi, ushbu o‘yindan foydalanish imkoniyatlari;

2.O‘yinni o‘tkazish shartlari (o‘yin qatnashchilari soni, bir o‘yinni o‘tkazish vaqti, tashkiliy jihatdan jixozlash);

3.O‘yin tartibi (bosqichlari, shu jumladan tayyorgarlik bosqichining zaruriyati);

4.O‘yinning borishi o‘quvchilar bilan muhokama qilishni tashkil etishning na’munaviy sxemasi;

5.O‘yinning diagnostik imkoniyatlari;

6.O‘yin chog‘ida vujudga keladigan tipik qiyinchiliklar;

7.O‘yindan foydalanish va uni rivojlantirishning istiqbolli turlari.

Quyidagi o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishning ko‘pgina umumiy jixatlariga emas balki, o‘yinlarni tavsiflash chog‘ida asosiy e’tibor shu o‘yinlarning o‘tkazilishini o‘ziga xos xususiyatlariga qaratiladi.

“Men qaysi kasbga yaroqliman?”

Davomiyligi 5 daqiqa.

Ishtirokchilarga test shaklida ish varaqasi beriladi (yoki shunchaki og‘zaki savol): Masalan:

Qanday faoliyat sizga manzur: odamlar bilan ishlash, texnik jihozlar, yozish, rasm chizish, yordam berish va h.k.?

Tez fikrlashmi yoki diqqatni jamlashmi?– Yolg‘iz ishlash yoki jamoada?

Ularning javoblari orqali qanday kasblarga moyil ekani muhokama qilinadi.

Masalan: kommunikatsiyani yoqtiradiganlar – jurnalistika, xizmat sohasi. texnikani yaxshi ko‘radiganlar – muhandislik va h.k.

Mini-debat: “Tajribasiz ish topish mumkinmi?”

Davomiyligi 5 daqiqa

Maqsad. O‘quvchilarga yaxshi kasb egasi bo‘lish uchun bilim va tajriba muhim ekanligini yetkazish

Ishtirokchilar 2 guruhga bo‘linadi:

1-guruh: Tajribasiz ham ish topish mumkin

2-guruh: Tajribasiz ish topish qiyin

Har bir guruh o‘z fikrini qisqacha himoya qiladi

O‘qituvchi xulosa qiladi: Tajribali kasb egasi bo‘lish uchun bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerakligi, shuningdek amaliyot va tajribaning ahamiyati juda katta ekanligini ta’kidlaydi. .

“Mening kuchli tomonlarim”

Davomiyligi 5 daqiqa

Maqsad: O‘quvchilarning faolligini oshirish. O‘z-o‘ziga ishonchni yanada mustahkamlash.

Yo‘riqnoma: “Navbat bilan ko‘ptokni bir- birimizga otib, ko‘ptokni ilib olayotgan o‘rtog‘imizning kuchli jihatlari, yutuqlari haqida gapiramiz. Ko‘ptok har birimizga otilishiga e’tibor bering”.

“Kasbni Top” O‘yini (o‘yinning asosiy varianti)

ilmiy –amaliy anjuman

O‘yinnig maqsadi: maktab o‘quvchilarini kasblarni tahlil qilishning ilmiy sxemasi bilan tanishtiradi. o‘yin “Professogramma”, “Kasb formulasi” mavzularini o‘rgangan chog‘da, shuningdek xalq xo‘jaligining turli tarmoqlaridagi konkret kasblar bilan tanishgan vaqtda foydalaniladi.

O‘yin shartlari: o‘yin sinf bilan (7-8 sinf o‘quvchilari bilan) ishlashga mo‘ljallangan. Birinchi o‘yin uchun 10-15 daqiqa, shundan keyin o‘yinlar uchun 7-8 daqiqa vaqt ajratiladi. O‘yinda sinf doskasidan keng foydalaniladi, kasblar tahlili jadvaliga ega bo‘lish maqbuldir.

O‘yinni aniqlash imkoniyatlari: o‘yin konkret kasb bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash, shuningdek kasblar tahlili sxemasini egallaganlik darajasini bilib olish imkonini beradi.

O‘yinni takomillashtirish istiqbollari: ushbu o‘yinni rivojlantirishning asosiy o‘li kasbni tahlil qilishning birmuncha qulay (o‘yin) sxemasini qidirishdan iborat. Ba’zi bir tartibiy takomillashtirish, rag‘batlantiruvchi msqa bilan o‘ylabtopish vaqtini to‘ldirish va shu kabilar bo‘lishi mumkin.

Yuqori sinf o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya jarayonida samimiy munosabat o‘rnatish, ularning har biriga inson sifatida yondashish, ularda ijodiy mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish bolalarning qasbiy qiziqishlarini chuqur bilish va ularni kasb-hunarga yo‘naltirishda hisobga olshini taqozo etadi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda shaxsining muhim individual psixologik xususiyati bo‘lgan kasbiy qiziqishlarini nazariy va amaliy o‘rganishga bag‘ishlab, tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘quvchilarda kasbiy qiziqishlari o‘ziga xos namoyon bo‘lish xususiyatlariga ega. Bular quyidagilar: yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlari yorqin namoyon bo‘ladi. Yuqori sinf o‘quvchi kasbiy qiziqishlarning yorqin namoyon bo‘lishining obyektiv va subyektiv sabablari

mavjud. O'quvchilarda kasbiy qiziqishlarning motivlari bo'lib ko'pincha uning atrofidagi ibratli insonlar yoki ijtimoiy sababiylik bo'lishi mumkin

2. Yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlarini maktab pedagoglari, psixologning bilishi, hamda AL va KHKlarga yo'llanma berishda asosiy mezon sifatida hisobga olshi har bir o'quvchiga o'ziga xos tarzda yondashish imkonini beradi.

3. O'quvchilarning kasbiy qiziqishlari aniqlashda ularning faoliyatini muntazam kuzatish orqali aniqlash. Bunda kasbiy qiziqishlarni davomiyligi, kuchi, darajalarining namoyon bo'lishiga etibor berish lozim. Kasbiy qiziqishlarni to'g'ri va aniq o'rganish uchun maxsus muljallangan so'rovnomalar va test uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. O'quvchilarning kasbiy qiziqishlari asosida ularda malum kasbga nisbatan qobiliyat va iqtidorini rivojlantirish chora tadbirlarini ishlab chiqish, hamda amaliy ishlarni bajarish lozim.

5. O'quvchilar kasbiy qiziqishlari bilish uning xulq-atvorini, faoliyati natijalarini ma'lum vaziyatlarda oldindan tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Demak, o'quvchilar kasbiy qiziqishlarini bilish ular bilan nafaqat psixologik munosabat o'rnatish, balki pedagogik jarayonni ham oqilona va samarali tashkil qilish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda ularning o'zlariga munosib kasb tanlashi, jamiyatda o'z o'rnini topishda ahamiyati kattadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ko'p qirrali va mas'uliyatli jarayon bo'lib, u o'qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligini talab qiladi. To'g'ri tashkil etilgan kasbga yo'naltirish ishlari yoshlarning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V. Karimova "Psixologiya" Toshkent. 2002 yil

ilmiy –amaliy anjuman

2. M.Abdullajonova, M.Isoqova, M.Zokirova, S.Isroiljonova Ijtimoiy psixoloik trening prktikum. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2003 yil
3. Y.Asadov. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”. Toshkent. 2010 yil
4. R.Yu.Toshimov. “Sotsial trening asoslari”. Toshkent 2000 yil
5. S.N.Alimxodjayeva., F.I.Haydarov. Psixologik treninglar ishlanmasi. 1qism (Amaliyotchi psixologlar uchun). T-2008 yil
6. ZIYO.NET